

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K: 9(575,1) 355. (575,1) (09)

BUXORO AMIRLIGIDA QO'SHIN QARORGOLARINING O'R NATILISH TAOMILLARI**ПОРЯДОК СОЗДАНИЯ АРМЕЙСКИХ ПОСЕЛЕНИЙ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ****THE PROCEDURE FOR ESTABLISHING ARMY SETTLEMENTS IN THE EMIRATE OF BUKHARA****Yunus Asrorovich Shukurillayev** 

Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Buxoro amirligida muntazam qo'shinga asos solgan Amir Nasrulloxon davrida qo'shin uchun qarorgohlar qurish, o'rnatish tartib-qoidalari, qo'shining ko'chishini tashkil etish, Rossiya imperiyasi protektorati davrida amirlik qo'shini kazarmalarining ahvoli, holati to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv manbalari orqali tahlil etiladi.

Аннотация

В статье анализируются на основе архивных источников сведения о установление поселений для армии в период правления эмира Насруллы, основавшего регулярную армию в Бухарском эмирата, порядок размещения, организаций передвижений войск, обстановка казарм армии эмирата в период протектората Российской империи.

Abstract

Based on archival sources, the article analyzes information about the construction of settlements for the army during the reign of Emir Nasrullah, who founded the regular army in the Emirate of Bukhara, the order of deployment, organization of troop movements, and the situation of the barracks of the emirate's army during the protectorate of Bukhara, the Russian Empire.

Kalit so'zlar: O'rdu (o'rda), chodir, qo'nalg'a, kazarma, ko'chish, tikish, o'rnatish, qorovul, sarboz, suvoriy, sarhang.

Ключевые слова: Орда (орду), палатка, высадка, казармы, передислокация, пошив, установка, охрана, сарбаз, кавалерия, сархане.

Key words: Horde, tent, disembarkation, barracks, redeployment, tailoring, installation, security, sarbaz, cavalry, sarhang

KIRISH

Ikki renessansga beshik bo'lgan Markaziy Osiyo XVIII asrning oxiriga kelib xonliklar o'tasidagi o'zaro urushlar hamda ichki nizolar pirovardida chuqur inqirozli davrni boshidan kechirayotgan edi. XVIII asrning oxiridan XX asr boshlarigacha murakkab tarixiy jarayonlarni o'tkazgan hudud tarixini arxiv manbalari asosida xolisona o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldag'i PQ-126-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 noyabrdagi "Harbiy tarixni o'rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 692-son qarorlari izlanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Tadqiqot obyekti, manbaviy asosi. Buxoro amirligining siyosiy-harbiy tarixida muntazam qo'shinga asos solinishi, qo'shin uchun qarorgohlarning tashkil etilishi tadqiq qilinmagan mavzulardan sanaladi. Mavzuning xolisona o'rganilishidagi asosiy manba sifatida Buxoro amirligida muntazam qo'shinga asos solgan Amir Nasrulloxon davrida Abbasquli Mirzo Kirmoniy tomonidan 1272 hijriy - 1856 milodiy yilda yozilgan "Buxoro davlatining harbiy Nizomi" [1; v.93], Amir Abdulahadxon hukmronligining dastlabki yillarda Rossiya imperiyasining harbiy nizomi asosida Mullo Xolmurodbiy dodhox tarjimasini va Mullo Muhammad Toqiy tomonidan yozilgan Nizom [2; v.123], 1308 hijriy -1890-1891 milodiy yilda Mirzabiy to'qsabo tomonidan uning to'ldirilgan, kengaytirilgan qo'lyozmasi [3; v.193] hamda O'zbekiston Milliy arxivi I-126 raqamli arxiv fondi "Buxoro amiri qo'shbegisi kanselyariyasi" hujjalariini kiritish mumkin.

Olingen natijalar va ularning tahlili. Buxoro amirligi qo'shinining harbiy qarorgohlari sirasiga o'rdu, o'rda (turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, gal'a), chodir (matodan qurilgan kapa, palatka), qo'halg'a (turarjoy, boshpana bo'lib xizmat qilgan, qiladigan joy; makon, manzil) va boshqalarni kiritish mumkin. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi vassaliga aylangach bular umumiy nom bilan kazarma deb yuritilgan [2; v.123].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Amir Nasrulloxon harbiy nizomining sakkizinch bob "O'rduning ko'chish hamda joylashish odob va qoidalari to'g'risida" deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Birinchi faslda o'rduni ko'chirish qoidalari keltiriladi.

Nizomda o'rduni ko'chirishdan avval ajudanboshi (адъютант) ko'chirish to'g'risidagi xabarni va topshiriqni olib, harakat qilish tartibiga, yuklarni jo'natish, necha nafar qorovul bo'lishi kerakligiga, o'ng va chap tomon qorovul, sarboz va suvoriylarga aniqlik kiritishi, yo'lning kayfiyati va qandayligini favj sarhanglari bilan maslahatlashuvi, sarhanglar (lashkarboshi, qo'mondon, ofitser) yuk va sarboz sonini aniqlab berishi, buning uchun ular bir nafar mansabdorga har dastadan bir nafardan vakilni sarjuqa (olti kishidan iborat harbiy qismda komandiri) bilan berib, har bir dastanining yuklari yoniga yuborishi, hamma dastanining yuki bir joyda bo'lishi lozim. Quyosh chiqishidan oldin tong paytida tabl va shipurlar (musiqa saboblari) chalinib, ko'chishning xabarini berishi ta'kidlanadi [1; v.178].

Nizomda o'rduning ko'chish hamda joylashishiga oid quydagi qoidalari keltiriladi: Sarbozlar zudlik bilan yuk va ko'chlarni joylab, ko'chishga hozir va tayyor bo'ladilar, ko'chuv jarayonida gap-so'z so'zlanmaydi. "Hozir bosh" - حاضر باش - nog'orasi chalinishi bilan belgilangan qoidaga rioya qilgan holda hozir bo'ladilar. Ajudanlar favjlarni ustunga hozir qilib, dastalarni tartib bilan baravar qiladilar. Ular ortiqcha yoki kam bo'imasligi lozim. Ular harakat paytida ham teng va bir xil tartib bilan yurishlari kerak bo'ladi. Harakat paytida hech qachon g'afflatda qolmasliklari shart. Sarbozga qonun shuki, u mashqqa ham jangga ham hamisha tayyor turadi, yo'lda ham nizom va tartibga bo'ysunadi. Jangga kirish to'g'risida buyruq bo'ldimi, bas, qat'iy tarzda jangga hozir bo'ladi. Sarboz hamma vaqt mashqdagi qoidalarga bo'ysunishi, qolgan vaqtarda esa nazm va nasaqqa (nizomdag'i tartib-intizomlarga) itoat qilishi lozim. Hech qachon nizomni tark qilish va unga xi洛f odat sodir bo'imasligi shart. Mansabdorlar har biri o'ziga tegishli favjning yukini jamlaydi. Sarbozlar ham o'zlarining yuklarini jobajo qiladilar. Chordir o'rnatalishi jarayonida xavfsizlik masalasiga qat'iy e'tibor qaratish talab etiladi. Xususan, miltiqlarini hech qachon oldilarida ushlamaydilar, balki hamisha biqinlarida saqlaydilar. Agar ovqatlanishga, dam olish va va suv ichishga zarurat bo'lib qolsa, sarbozlar nizomga ko'ra nazoratdan o'tadi. Miltig'iga chotma uriladi, tartib tushuntiriladi, miltiq otlib ketmasligidan ogoh qilinadi. Shundan so'ng ularga ovqatlanishga va dam olishga ruxsat beriladi [1; v.179]. Miltiqlarga chotma urilgan joy ulardan uzoq bo'imasligi kerak.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'rdu va chodirning yaqiniga etishlari bilan nizomdag'i qonun bo'yicha "Zud march"-
buyrug'i berilib, tabbol va nayzanlar nog'ora va naylarini chalishlari lozim. Shundan so'ng har bir favj ajudan avvaldan belgilab qo'yan joyiga qarab yuradi. Borgach, miltiqlarni "Darjo fang"- درجا فنگ - qilgan holatda tayyor va hozir turadilar. Har bir dastadan necha sarboz bo'lsa, hammalari birgalikda ko'chlarni joylashtirishga va chodirlarni baland qilib ko'tarishga kirishadilar. Bundan nihoyatda tartib bilan, chodirlar bir-biridan tekis chiziqda to'g'ri bo'lishi kerak. Bayroq chodir burchagida to'g'ri chiziqda o'rnatalishi lozim. To'liq joylashib bo'lingandan so'ng, qorovul tayinlab, qolgan sarbozlarga o'z joylariga tarqalib, dam olishga ruxsat beriladi [1; v.180].

Nizomning ikkinchi faslda o'rduni tikish hamda chodir o'rnatalish odob va qoidalari keltiriladi. O'rdu tikish va chodir o'rnatalish nizom qonuniga asosan bo'lib, bunda ajudanlar ko'chish paytida o'z favjlarini jobajo qilib bo'lishgach, ajudanboshi bilan kelishgan holda lashkarni tushirmoqchi bo'lgan erni oldindan ko'rib keladilar. Agar u joy qulay va xavfsiz bo'lsa, ro'parasi dushman, atrofi daryo, yoki tog', yoki botqoq kabi dushman o'tolmaydigan joy bo'lsa, o'rdu uchun tanlaydilar. Bu joy dushman kelishiga monelik qiladigan, o'tish qiyin bo'lgan joy bo'lishi kerak. Hushyor bo'lish kerakki, dushman yashirinishi mumkin bo'ladigan changalzor, bog' kabi pana joylar bo'lmasisin. O'rdaning joyi shunday bo'lishi kerakki, banogoh dushman kelib qolsa, ularni to'p va miltiqlardan o'qqa tutishning imkonи bo'lsin. Xulosa shuki, o'rduning joyi har tomonlama qulay, o'ralgan, xavfsiz va yaxshi joy bo'lishi lozimki, bu joyni favjlarning ajudanboshi tanlaydi [1; v.181].

Chodir o'rnatalishning qoidasi shuki, avval har bir favj tashtivonining masofasi markazdan yigirma qadamdan qilib aniqlanadi. Qolgan ochiq joyga favjlarning dastajotiga taqsim qilib beriladi.

TARIX

Ular esa sarbozlariga dasta tartibida taqsim qiladilar. Sarbozlar chodirlarini o'rnatganlarida orqasi bir-biriga tegib turishi, ro'paradagi chodirlar og'zi bir-biriga qaragan holda bo'lishi kerak. O'rtadagi masofa keng qolishi kerak. Negaki, "hozir bosh" buyrug'i bo'lganda ikki tomon sarbozlari qator bilan turganda sig'ishi kerak. Sarbozlar bilan noiblarning chodiri orasidagi masofa o'ttiz qadamdan, joy tanglik qilgan vaqlarda yigirma qadamdan kam bo'imasligi kerak. Uning orqasida sardastalarning chodirlari o'rnataladi. Ulardan keyin sarhangning chodiri favj markazining ro'parasida bo'ladi. Birinchi yovarning chodiri bahodirlar dastasining orqasida bo'ladi. Ikkinci yovarning chodiri sarhangning chodiridan bir zil' ro'parasiga o'rnataladi. Mushrif, bekzoda kabi qolgan muboshir sarbozlarning chodiri sarhang chodiridan yigirma qadam orqada, o'ng va chapda joylashadi. Agar o'rdu tushgan joy torroq bo'lsa, oraliq masofalar kamaytiriladi. Nizomda har qanday holatda ham noiблar va sarbozlar o'tasida masofa bo'lishi shartligi, agar zarur bo'lib qolsa, masofa uchun bitta favjni boshqa joyga ko'chirilishi, har qanday holatda ham sarbozlarning chodiri oldida noiблar harakat qilish imkonи bo'lishi, yuklarni tashish, tushirish va ko'chirish uchun sarbozlarning ot•aravalari bu joyda sig'ishi kerak bo'lishi ta'kidlanadi. Shuningdek, ularga ovqat tayyorlash ham shu o'ttada bo'ladi. Biroq, yuklarni tashish, suvoriy yurish, qozon - tovoq, ovqat pishirish kabi ishlar aslo sarbozlarning chodiri yonida bo'imasligi kerakligi, shuningdek, mansabdorlarning chodiridan ham uzoqroqda pishirsa yaxshi bo'lishi, bu ishlarni qilishda sarbozlar borishi kerak bo'lgan tashtivon uchun qoladigan masofani oldindan mulohaza qilish kerak ligi uqtiriladi.

Har kuni birinchi vakil tayinlagan har chodirdan bir nafar sarboz navbat bilan tongi nog'ora chalinganda hozir bo'lib, chodirlar orasini supurib-sidirib, tozalashlari va yig'ilgan axlatlarni to'plab, o'rdudan tashqariga, qorovuldan ham nariga o'tkazib tashlab kelishlari kerak.

Sarhanglar tomonidan tayinlangan bir muboshir har kuni kelib, oldingi qorovul (avangard)dan favj qorovuligacha nazorat qilib chiqadi. Tozalik va ozodalikka e'tibor berilib, buni qadag'an (qat'iylar) ta'kidlab nazoratga olish) qilish deydilar. Har bir qo'shining peshqadam qorovullari (avangard) o'z qo'shinining chodirlari joylashgan hududga nisbatan oldinda bo'lishi kerak. Joyning xususiyatlari qarab, qo'shin o'zini himoya qilish maqsadida tepalik yoki daraning muayyan joyini aniqlab belgilashi lozim [1; v.182].

Tungi vaqtarda qo'shinden tashqariga chiqadigan qo'riqchilar, boshqacha aytganda, kuzatuv va himoya vazifasini bajaradigan qo'riqchilar o'ng va chap tomonlarda, shuningdek, peshqadam qo'riqchilarning oldingi chizig'i bo'ylab joylashishi kerak. Agar o'rduning ro'parasiga yoki yaqiniga yoki o'tasiga tepalik to'g'ri kelib qolsa, darhol uning ustiga to'plar va qo'rxonani joylashtirib, u erda kecha-kunduz navbatchilikni tashkil qilish shart. Do'stu dushmanidan asrash kerakki, muboshir ruxsat bergen kishidan boshqa biron kishi u joyga kirolmasin.

Rossiya imperiyasi protektoratiga aylangan Buxoro amirligiga qo'shinidagi holat haqida ishonchli manba O'zbekiston Milliy arxivi I-126 raqamli arxiv fondi "Buxoro amiri qo'shbegisi kanselyariysi" 1602-1612 yig'majildlarida harbiylar kazarma va qo'nalg'alar keltirilib, aksariyat hollarda harbiy kazamalardagi ahvolning yomonligi ko'zga tashlanadi. Ushbu holat g'arb va mahalliy mualliflarning asarlari ham o'z isbotini topadi.

Amirlikda jangchilarining dam olishi va tunashi uchun harbiy kazarmalar etishmas, mavjudlari ham ayanchli ahvolda bo'lgan. N. Stremousovning yozishicha, Buxoro harbiy qo'shinlarining kazarmalari juda ham achinarli ko'rinishga ega bo'lgan. Harbiylar namoyishda qatnashganda sarbozlar to'dasi harbiylarga emas, ko'proq masxarabozlar to'dasiga o'xshar edi. Ertalab barvaqt istar istamas sudralib o'z uyidan eshakda Buxoro harbiy qo'nimgohga yo'l olgan sarbozlarni ko'rish kulgili tuyulardi. Buxoro harbiy qo'shinining namoyishi komediyanı eslatardi. U o'zining g'alatiligi bilan har qanday jiddiy kuzatuvchining ham kulgisini qistardi [4; b-650].

Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylangach, ko'proq ramziy ma'no ahamiyat kasb etadigan yangi tipda tashkil etilgan "yevropacha" tipdag'i nizomiy guruuhlar uchun bunyod etilgan kazarmalarda ham ahvol achinarli edi. Mazkur nizomiy guruuhlar muntazam qo'shin sifatida Terskiy otryadi Karmana va Buxoro shahrida taxi – Chorbog' guzaridagi [5; 814-ish, v-9], Oqliq kazaklar shaharda Hovuz – Mirdo'stim, Mozori Chashmai – Ayyub, Kofirobod guzaridagi [6; b-37], Shefskiy guruhi Sitorai Mohi – Xosadagi [6; b-38] kazarmalarda qo'nim topishgan.

G'arb tadqiqotchilarining amir sarbozları qo'nim topgan kazarmalarida gi ahvol xususidagi fikrlari arxiv manbalarida ham o'z ifodasini topgan.

- Xolmurodbiy inoqi kalonning to'pchiboshiga yozgan arzi. 1889 yil, noyabr. Askarlar yashaydigan kazarmalar emirilgan bo'lib, ularni ta'mirlash kerak. Taxminan 2 oy ichida kazarma

tamoman emiriladi. Janobi Oliydan umid qilib shuni iltimos qilamanki, mazkur muddat ichida o'zim 300 nafar askar va to'ralar bilan Taxti – Chorbog' kazarmasiga kelib joylashsak [7; 1610-yig'majild, v-1];

- Nurali yuzboshining to'pchiboshiga arzi. 1896 yil. Bandalik arzini qilib bildiramanki, sarbozlarning chodirlari yirtilgan. Ko'p yomg'irlardan nam bo'lgan. Kazarmada 16 sarboz kasal bo'lib mashqlarga qatnasha olmayapti. Shuning uchun bizga ta'mirlash, kulucha, shalvar sotib olish uchun 300 tanga ajratsangiz [7; 1602-yig'majild, v-4];

Kazarmalar asosan namatlardan tayyorlanib, ularni har yil ta'mirlashga to'g'ri kelgan:

-Janobi oliyhazrat! Marhamatli umidgoh! Davlat va salomatligingiz uchun duolar qildim. Qora uyni ta'mirlab tayyorlash borasidagi arizaga binoan Davlat chehraoq'ani yuborgan edingiz. Ustalar bu erga ishlab 10 ta xonani yaxshi ahvolga keltirib tayyorladilar. Mazkur xonalarda o'tgan yilgi namatlar bor. Yana 16 adad Toshkent namatlarini sarfladik. Qolgan 2 xonaga nechchi adad namat va jihoz olish kerak deb arz qildik [7; 1611-yig'majild, v-10].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida sayyor, muvaqqat, ko'chma har xil turdag'i kazarmalar tashkil etilganki, ularning joylashuv o'rni, soni bo'yicha aniq hisob-kitoblar olib borilmagan, hatto yuqori mansabli harbiy amaldorlar ham bu haqda to'la ma'lumotga ega bo'lishmagan:

-Vazoratpanoh! Oliy muboraknomaga binoan nechta qorovulkxona, nechta kazarma ostonlar (tuman) borligini so'rab bildim. Katta noibdan so'radim. Noib men bilmayman, oliy davlatxonasi hokimlariga xat bilan chiqing, dedilar. Har qaysi hukmdor o'z tobeliklarini yaxshi biladi. Har bir hokimning qo'l ostida bir necha ostonlar va kazarmalar bor dedilar. Men taraddud qilib Kogondan Chorjo'ygacha, Murg'akdan yuqorigacha bordim. 2 noib bilan 4 shogirdpeshalarni quyi tomonga yubordik. Hazratimga ma'lum bo'lsin, deb yozdim. 2-3 shogirdpeshalarni yuboring. Illohi badavlat va salomat bo'ling [7; 1611-yig'majild, v-5].

XULOSA

Amir Nasrulloxon tomonidan qo'llanilgan harbiy Nizom o'sha davrning eng zamonaviy armiyalarida foydalanib kelingan, xususan, Angliya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarning harbiy Nizomlarida ham ushbu qoidalar mujassamlashgan. Biroq, qisqa vaqt ichida Amir Nasrulloxon mazkur qoidalarni qo'shinga to'la tadbiq eta olmadi. Rossiya imperiyasining protektoratiga aylangan Buxoro amirligida harbiy ishlar imperiya nazorati ostida bo'lib, uning kuchayishi, takomillashuviga yo'l qo'yilmadi, qo'shin, kazarma ahvoli yaxshi tomonga o'zgarmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo'lyozma. O'zR FA Shl. №2793. -B 93
2. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo'lyozma. O'zR FA Shl. №3322. -B 123
3. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo'lyozma. O'zR FA Shl. №2794. -B 193
4. Стремоухов Н. Поездка в Бухару. // Русский вестник, Т. VI, 1875. -С. 650.
5. Samarqand shahridagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxiv. Hujjat №814, 6-varaq.
6. Фитрат. Давраи хукмронии Амир Олимхон. Душанбе, 1991. -37 б.
7. O'zbekiston Milliy arxivining I-126 -fondi - Buxoro amirligi qo'shbegi devonxonasi, 1-ro'yxat, 1602 dan 1612 gacha-yig'majildlar.